

## **"QUTADG‘U BILIG" ASARIDA KELTIRILGAN HIKOYALARING INSON ONGIGA TA’SIRI.**

*Andijon davlat pedagogika instituti Filologiya fakulteti O’zbek tili va adabiyoti  
yo’nalishi 1-bosqich 101-guruh talabasi Nabiyeva Gavharoy*

**Annotation:** Mazkur maqolada Yusuf Xos Hojibning "Qutadg‘u bilig" asarida keltirilgan hikoyalar va ularning inson tafakkuriga, ongiga ko‘rsatadigan ta’siri tahlil etiladi. Hikoyalar orqali berilgan axloqiy, ijtimoiy va falsafiy g‘oyalari insonni to‘g‘ri yo‘lga boshlash, hayotiy qarorlarni oqilona qabul qilish va jamiyatda o‘z o‘rnini anglashga undaydi. Asarda hikoya shaklida ifodalangan pand-nasihatlar ko‘p asrlik tajribani jamlagan holda inson ongi va qalbini tarbiyalashda muhim o‘rin egallaydi.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается влияние рассказов, приведённых в произведении Юсуфа Хос Ходжиба "Кутадгу билиг", на человеческое мышление и сознание. Через рассказы автор передаёт нравственные, социальные и философские идеи, побуждающие человека к правильному жизненному пути, принятию обдуманных решений и осознанию своего места в обществе. Содержащиеся в произведении в форме рассказов советы и наставления, накопленные многовековым опытом, играют важную роль в воспитании сознания и души человека.

**Abstract:** This article analyzes the influence of the stories presented in Yusuf Khass Hajib's "Qutadghu Bilig" on human thinking and consciousness. Through these stories, the author conveys moral, social, and philosophical ideas that guide individuals toward the right life path, help them make wise decisions, and encourage them to understand their place in society. The advice and lessons expressed in the form of stories, based on centuries-old experience, play a significant role in shaping both the mind and soul of a person.

**Kalit so‘zlar:** Qutadg‘u bilig, hikoya, axloqiy tarbiya, inson ongi, tafakkur, falsafa, pand-nasihat.

**Ключевые слова:** Кутадгу билиг, рассказ, нравственное воспитание, сознание человека, мышление, философия, наставление.

**Keywords:** Qutadghu Bilig, story, moral education, human consciousness, thinking, philosophy, advice.

Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asari Sharq adabiy-falsafiy tafakkurining bebaho yodgorligi bo‘lib, unda qadimiy turkiy xalqning axloqiy-ijtimoiy qadriyatlari, davlat boshqaruvi, odil jamiyat barpo etish g‘oyalari hikoyalar orqali teran ifodalangan. Asar ko‘p qirrali mazmuni bilan nafaqat adabiy meros, balki inson psixologiyasi, tafakkuri va ongi rivoji uchun ham ahamiyatlidir.

“Qutadg‘u bilig”da keltirilgan hikoyalar inson ongi va ruhiy dunyosini shakllantirishda kuchli vosita bo‘lib xizmat qiladi. Hikoya shaklida bayon etilgan pand-nasihatlar inson tafakkuriga bevosita ta’sir etadi va uni ongli ravishda hayotiy haqiqatlarga yo‘naltiradi. Hikoyalar orqali insoniyatga qadimdan ma’lum bo‘lgan universal qadriyatlar —adolat, donishmandlik, vafodorlik, mehnatsevarlik va axloqiy tozalik tushunchalari singdiriladi.

Asarda hikoya qahramonlari ramziy ma’no kasb etadi. Masalan, Kuntug‘di — adolatni, Ayto‘ldi — baxt va davlatni, O‘zg‘urmish — aql va tafakkurni, O‘dulg‘ esa ruhiy poklik va qoniqishni ifodalaydi. Hikoyalar davomida ushbu obrazlar orqali inson hayoti va jamiyat rivojida eng muhim qadriyatlar tahlil qilinadi. Qahramonlar orasidagi muloqot, so‘zlashuv shaklida berilgan hikoyalar ko‘p hollarda falsafiy muloqot xususiyatiga ega bo‘lib, o‘quvchini fikrlash, tahlil qilish va xulosa chiqarishga undaydi.

Bu hikoyalar inson ongiga ijobiy ta’sir ko‘rsatib, tafakkur tarbiyalaydi, axloqiy yuksalishga xizmat qiladi. Hikoyalardagi mavhum va umumiyo ko‘rsatmalar emas, balki hayotiy misollar asosida bildirilgan pand-nasihatlar o‘quvchi ongida real voqeliklar bilan bog‘lanib, mustahkam iz qoldiradi. Shu jihatdan "Qutadg‘u bilig"dagi hikoyalar nafaqat ma’naviy tarbiya, balki dunyoqarashni kengaytirish, shaxsiy rivojlanishga yo‘naltirilgan ko‘rsatmalar majmuasi sifatida e’tirof etiladi.

Yusuf Xos Hojib asaridagi hikoyalarda ijtimoiy adolat, rahbar va xalq orasidagi aloqalar, odamiylik va vijdoniylik tamoyillari yetakchi o‘rin egallaydi. Hikoyalarda insonning jamiyatdagi o‘rni va mas’uliyati keng oolib beriladi. Ayniqsa, qahramonlar hayotiy tajriba asosida bildirilgan fikrlari bilan inson ongi va yuragiga kirib boradi, uni o‘ylash va anglashga majbur etadi.

Shuningdek, "Qutadg‘u bilig"dagi hikoyalar zamonaviy psixologik tarbiya nazariyalariga ham uyg‘un keladi. Asarda keltirilgan hikoyalarning asosiy g‘oyasi shundaki, inson o‘z tafakkurini doimiy rivojlantirib, hayotiy qarorlarni puxta o‘ylab qabul qilishi kerak. Faqat bilim emas, balki aql-idrok va axloqiy mezonlar asosida to‘g‘ri yashash inson hayotining poydevorini mustahkamlaydi.

Shu bois, "Qutadg‘u bilig"dagi hikoyalar inson ongi va qalbini shakllantirishda qadimdan buyuk tarbiya vositasi bo‘lib kelgan. Ushbu asar nafaqat o‘tmish avlodlar uchun, balki zamonaviy insoniyat uchun ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan, balki aksincha, ma’naviy o‘sish va barkamollikka yetishishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda.

Yusuf Xos Hojibning "Qutadg‘u bilig" asarida keltirilgan hikoyalar, o‘z zamonasining hayotiy haqiqatlarini chuqur anglagan holda inson tafakkurini shakllantirish, uning ma’naviy va axloqiy yetukligini ta’minlashga xizmat qiluvchi noyob manbadir. Ushbu asarda hikoyalar orqali inson ongi va qalbiga kuchli ta’sir

ko'rsatish, uni hayotiy muammolarni hal qilishda mustaqil fikrlashga va oqilona qaror qabul qilishga o'rgatish ko'zda tutilgan.

Asardagi hikoyalar nafaqat shaxsiy kamolot, balki ijtimoiy ong va jamiyatda o'z o'rmini to'g'ri anglash masalalarini ham keng yoritadi. Insonni axloqiy me'yordarga rioya qilish, jamiyatdaadolat, vafodorlik, halollik, sabr-toqat kabi qadriyatlarni qadrlashga, ularga amal qilishga undaydi. Bu jihatlar insonni yuksak ma'naviyat sohibi bo'lish sari yetaklaydi.

Hikoyalar inson ongi va tafakkurining faollashishiga, hayotiy tajribani anglash va o'z fikrini mustaqil shakllantirish ko'nikmasini rivojlantirishga katta hissa qo'shadi. Ular orqali kishilar o'zaro munosabatlarda hurmat, bag'rikenglik,adolat, mehnatsevarlik, sadoqat kabi tamoyillarni anglab yetishadi va hayotda ularga amal qilishga harakat qiladilar.

Bugungi globallashuv davrida ham "Qutadg'u bilig" hikoyalarining inson tafakkuri va ongiga ko'rsatadigan ta'siri o'z ahamiyatini yo'qotmagan, aksincha, zamonaviy tarbiya jarayonida yoshlarni axloqiy barkamollikka yetaklovchi eng muhim manbalardan biri sifatida qadrlanmoqda. Asardagi hikoyalarning falsafiy mazmuni insonni doimo o'zini anglash, ijtimoiy mas'uliyatini his etish va jamiyatda yetuk shaxs sifatida shakllanishga undaydi.

Xulosa qilib aytganda, "Qutadg'u bilig" hikoyalari insonni chin ma'noda yetuklik sari yo'naltiruvchi, uning tafakkur doirasini kengaytiruvchi va ma'naviy tarbiyasini mustahkamlovchi beباho adabiy-falsafiy manba bo'lib qoladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig. Toshkent: Fan, 1971.
2. G'ulomov A. "Qutadg'u bilig" va uning falsafiy mazmuni. — Toshkent, 1988.
3. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz keljak yo'q. — Toshkent: O'zbekiston, 1998.